

MEHNAT BOZORI SHARHI 2025-YIL IV CHORAK

Asosiy xulosalar


2025-yil IV choragida **mehnat bozorida faollik oshdi**. Bo'sh ish o'rinlari **taklifi sezilarli darajada ko'paydi (15,3%)**, ishchi kuchiga talab ayniqsa qurilish, umumiy ovqatlanish va ishlab chiqarish sohalarida yuqori shakllandi. Shuningdek, IV chorakda nominal va real ish haqi yuqori o'sishda davom etdi hamda pul o'tkazmalari hajmi sezilarli oshdi.

Bo'sh ish o'rinlari va ish qidirish faolligi

Ochiq manbalar ma'lumotlariga ko'ra, IV chorakda biznes subyektlari tomonidan e'lon qilingan bo'sh ish o'rinlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan **15,3% ga oshdi** ishchi kuchiga talabning yuqori o'sishi asosan **qurilish (32,6%), umumiy ovqatlanish (23,9%) va ishlab chiqarish (13,4%)** tarmoqlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, IV chorakda onlayn ish qidirish faolligi **mavsumiy pasayish tendensiyasini ko'rsatdi**, bu esa ish qidiruvchilarning ish izlashda ijtimoiy tarmoqlar, maxsus saytlar va mobil ilovalar kabi muqobil platformalardan ko'proq foydalanishi bilan izohlanishi mumkin.

E'lon qilinayotgan bo'sh ish o'rinlar soni, mingta



Manba: Markaziy bankning ochiq ma'lumotlariga asoslangan hisob-kitoblari.


MEHNAT BOZORI SHARHI

Korxonalar kutilmalarida ish o'rinlarini oshirish ustun bo'ldi

Iqtisodiy faollik bo'yicha so'rovnoma natijalariga ko'ra, 2025-yilning IV choragida korxonalar orasida ish o'rinlarini ko'paytirish bo'yicha kutilmalar kuchaydi. Xususan, oktyabr-dekabr oylarida ish o'rinlari sonini oshirishni kutayotgan tadbirkorlar ulushi **36,4%** ga yetdi (III chorakda 32,9% bo'lgan). Shu bilan birga, ish o'rinlarini o'zgartirishni bildirgan respondentlar ulushi **56,4%** ni tashkil etdi.

Ayni paytda ish o'rinlarini qisqartirishni kutayotganlar ulushi **III chorakdagi 12,7% dan IV chorakda 7,2% gacha kamaydi**. Ish o'rinlarini oshirish kutilmalari ayniqsa **qurilish (43,6%), xizmatlar (38,5%) va savdo (32,2%)** sohalarida yuqoriroq shakllandi.

Ish o'rinlari sonining o'zgarishi bo'yicha korxonalar kutilmalari, foizda



Manba: Markaziy bank.

Mehnat bozori muvozanatlashuvi

2025-yil IV choragida O'zbekiston bo'yicha Beverij egri chizig'ining chapga gorizontal siljishi kuzatildi. Bu mehnat bozorida taklif etilayotgan ish o'rinlari va ishchi kuchi o'rtasidagi mutanosiblik yaxshilanganini, ya'ni ish beruvchilar vakansiyalarni tezroq to'ldirishi hamda ish qidiruvchilar tezroq ish topishini anglatadi. Natijada mehnat bozori bosimi nisbatan barqarorlashgan.

Ma'lumot uchun: Beverij egri chizig'i ishsizlik va bo'sh ish o'rinlari darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettirib, mehnat bozori holati va iqtisodiyot barqarorligi bo'yicha muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. Jumladan: 1) Beverij egri chizig'ining chap tomon pastga siljishi mehnat bozori samaradorligi oshganini bildiradi; 2) egri chiziqning o'ng tomon yuqoriga siljishi mehnat bozori samaradorligi pasayganligidan dalolat beradi; 3) egri chiziqning chapga vertikal siljishi iqtisodiyot kengayish bosqichiga kirayotganligini, o'ngga vertikal siljishi esa iqtisodiyot tanazzul (retsessiya) bosqichiga o'tayotganligini anglatadi.

Ish haqi: nominal va real o'sish saqlanib qoldi

2025-yilda iqtisodiyotda nominal va real ish haqining yuqori o'sishi davom etdi. Xususan, yil yakuniga ko'ra nominal ish haqi **18,9%**, real ish haqi esa **9,3%** ga oshdi. O'rtacha oylik ish haqi **6,4 mln so'mni** tashkil etdi.

Sohalar kesimida o'rtacha ish haqining eng yuqori darajasi **moliya va sug'urta (17,6 mln so'm)** hamda **axborot-kommunikatsiya xizmatlari (15,3 mln so'm)** yo'nalishlarida saqlanib qoldi. Eng past ish haqi esa **qishloq xo'jaligi (3,4 mln so'm)** va **ijtimoiy xizmatlar (4,1 mln so'm)** sohalarida qayd etildi.


Shuningdek, 2025-yilning ikkinchi yarmidan boshlab davlat sektorida ish haqi indeksatsiyasi hisobiga ayrim tarmoqlarda ish haqi o'sish sur'atlari tezlashdi.

Tashish va saqlash hamda **ijtimoiy xizmatlar** yo'nalishlarida ish haqi o'sishi yuqoriroq shakllandi, qurilish sohasida esa o'sish sur'ati nisbatan past bo'lib qoldi.

Hududlar kesimida real ish haqining eng yuqori o'sishi **Namangan (13,1%)**, **Sirdaryo (11,5%)** va **Jizzax (11,1%)** viloyatlarida kuzatilgan bo'lsa, eng past o'sish **Andijon (4,6%)** va **Qoraqalpog'iston Respublikasi (6,2%)** hissasiga to'g'ri keldi.

Umuman olganda, ish haqi o'sishining yuqori shakllanishi aholi daromadlari va ichki iste'molni qo'llab-quvvatlovchi omillardan biri bo'ldi. Shu bilan birga, ayrim tarmoqlarda ish haqi o'sish sur'atlarining tezlashishi mehnat bozorida ayrim kasb va xizmatlarga bo'lgan talabning ortib borayotganini ko'rsatadi.

Iqtisodiyotda ish haqqining o'sish sur'ati, foizda



Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.


Pul o'tkazmalari va mehnat migratsiyasi

IV chorakda mehnat muhojirlari tomonidan O'zbekistonga **5 mlrd dollar** pul o'tkazmalari yuborilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **39,8% ga oshdi**.

IV chorakda pul o'tkazmalarining o'sishi asosan **Rossiya va Osiyo mintaqasidan yuborilgan o'tkazmalar hajmining yuqori sur'atlarda oshishi** hisobiga shakllandi. Xususan, ushbu mintaqalardan yuborilgan pul o'tkazmalari mos ravishda **43% va 39% ga o'sdi**.

Migratsiya yo'nalishlari diversifikatsiyasi kengayishda davom etmoqda. Xususan, **Koreya Respublikasi va Turkiyada** O'zbekiston fuqarolari sonining oshishi kuzatilib, mehnat resurslarining xalqaro mobilligi (harakatchanligi) ortib bormoqda.

Pul o'tkazmalari dinamikasi, mlrd doll.



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari.